

TEMURIYLAR DAVRIDAGI USTA ME'MORLAR

M.Nurmuhammedov

Namangan davlat universiteti talabasi

E-mail: nurmuhammadovmirvohidjon@gmail.com

Tel: 94 392 42 62

Ilmiy rahbar: Erqo'ziyev Anvarjon tarix fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada qudratli imperiyalardan biri bo'lgan, har sohada o'zidan o'chmas iz qoldira olgan Temuriylar imperiyasi davridagi me'morchilik sohasidagi ayrim me'moriy obidalar va ularning usta me'morlarining faoliyati to'grisida ma'lumotlar berilgan. Ushbu maqola davomida mashhur me'moriy obidalarining kimlar tomonidan bunyod etilganligi, ustalarning mahorati va ularning qay o'lkalardan ekanligiga ham urg'u berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, naqqoshlik, ilm-fan, masjid, madrasa, Shohizinda, O'lja oyim, Tug'luq Tegin, Shirinbeka, Samarqand, Qavomiddin Sheroziy, Badriddin, Shodi Mulk, Muhammad Yusuf Tabriziy, Oq Saroy, Ali ibn Mahmud Xorazmiy.

MASTER ARCHITECTS OF THE TIMURID ERA

Annotation: This article provides information about certain architectural monuments and the activities of master architects during the era of the Timurid Empire — one of the most powerful empires that left an indelible mark in every sphere. Throughout the article, special attention is given to the famous architectural monuments, their creators, the skills of the craftsmen, and the regions they originated from.

Keywords: Central Asia, painting, science, mosque, madrasa, Shahizinda, Olja Ayim, Tughluq Tegin, Shirinbeka, Samarkand, Qavomiddin Shirozi, Badriddin, Shodi Mulk, Muhammad Yusuf Tabrizi, Aq Saray, Ali ibn Mahmud Khorezmi.

ВЫДАЮЩИЕСЯ АРХИТЕКТОРЫ ЭПОХИ ТЕМУРОВ

Аннотация: В данной статье представлена информация о некоторых архитектурных памятниках и деятельности мастеров-архитекторов эпохи Империи Тимуридов — одной из могущественных империй, оставившей неизгладимый след во всех сферах. В течение статьи особое внимание уделяется тому, кем были возведены знаменитые архитектурные сооружения, мастерству зодчих и регионам, откуда они происходили.

Ключевые слова: Средняя Азия, живопись, наука, мечеть, медресе, Шахизинда, Оля Айым, Туглук Тегин, Ширинбека, Самарканд, Кавомиддин Широzi, Бадриддин, Шоди Мульт, Мухаммад Юсуф Тебризи, Ак Сарай, Али ибн Махмуд Хорезми.

KIRISH

Mo'g'ullar hukmronligi davrida madaniyat, fan, adabiyot va san'at tanazzulga uchradi. Ko'plab fozil kishilar, olimlar va shoirlar mo'g'ullarga qarshi kurashda halok bo'ldi, yoki ularni mahoratlari oyoq osti qilindi. Garchi mo'g'ullar istilosi Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyatida erishgan tajriba va an'alarini yemirib tashlashga uringan bo'lsa-da, uni butunlay yo'q qilib tashlay olmadi.

XIV asr o'rtalaridan to XVI asrgacha bo'lgan davr Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati, san'ati va adabiyoti taraqqiy etishida yangi va semahsul davr bo'ldi. Bunga asosiy sabab mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashda g'alabaga erishib Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat barpo etilishi bo'ldi. Tabiiyki, mustaqil davlatning tashkil topishi mamlakatda ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishiga, hunarmandchilik, shaharlar va umaman madaniyatning yuksalishiga olib keldi. Bu davrda Markaziy Osiyo xalqlari ilm-fan, me'morchilik, naqqoshlik, musiqa, tasviriy san'at, adabiyot va boshqa sohalarda katta yutuqlarga erishdilar. Shu davrda ajoyib saroylar, masjid va madrasalar, koshinkor maqbaralar qurildi. Bu davrda yetishib chiqqan buyuk olimlar, adabiyot va san'at namoyondalari, usta me'morlari va boshqa madaniy-ma'rifiy sohalarda mamlakatni rivojlantiruvchi ko'plab olimlar yetishib chiqdi. Temuriylar davrida Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ali Qushchi, Lutfiy, Alisher Navoiy, Abdurahman Jomiy, Behzod, Qoshiy kabi juda ko'plab olimlar ilm-fan sohasi rivojlanishida davlat shuhratini olamga yoyib, tarixdan o'chmas iz qoldirgan bo'lsalar, bu davrdagi temuriylar durdonalari hisoblangan madrasalar, minoralar, masjid va maqbaralarni bunyod etgan zamoni va hozirgi davr uchun ahamiyati yuksak bo'lgan, temuriylar kuch-qudratini o'zida namoyon etib turuvchi me'moriy inshootlarni bunyod etgan me'morlarning ham o'rni ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Amir Temur ko'p yillar davom etgan feodal tarqoqlik va urush-talashlar natijasida vayron bo'lgan xalq xo'jaligini tiklash, shaharlarni qayta qurish va mamlakatni obod qilish ishini boshlab berdi. Amir Temur shahardagi har bir mo'min-musulmon uchun muqaddas hisoblangan joylarni obod qilishga alohida e'tibor berdi. Shunday muqaddas joylardan biri Shohizinda bo'lib, bundan tashqari Temur davrida

O'lja oyim, Tug'luq tegin, hazrati sohibqironning opasi Qutlug' Turkon og'a, singlisi Shirinbeka maqbaralarini qurdirilgan[1]. Temuriylar davrida bunyod etilgan obidalar sharq me'morchiligining eng yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Ushbu inshootlar nafis bezaklari, ulkan gumbazlari va murakkab muhandislik yechimlari bilan ajralib turadi. Temuriylar davridagi obodonchilik ishlarida shubhasiz davlatning poytaxti Samarqand boshqa o'lkalarga qaraganda iqtisodiy va madaniy sohadagi rivojlanishda alohida ajralib turadi. Samarqandda qurilgan me'moriy inshootlar kishini hayratda qoldiradigan darajada mukammal qurilganligi bilan ajralib turadi. Bu davrda Samarqanddagi Bibixonim masjidi, Go'ri Amir maqbarasi, Shohizinda majmuasi, Turkon og'a maqbarasi, Ulug'bek madrasasi kabi inshootlar eng mashhurlaridandur. Samarqandning Bibixonim masjidi va boshqa yirik me'moriy inshootlarni qurishda muhim ro'l oynagan usta me'morlaridan biri - Qavomiddin Sheroziy edi.

Qavomiddin Sheroziy XV asrda yashab o'tgan tarixiy shaxs, uning tug'ilgan yili haqida aniq ma'lumotlar saqlanmagan, vafot etgan sanasini ayrim manbalarda 1440-yil deb ko'rsatiladi. Qavomiddin Sheroziyning vatani Eron bo'lib, fors me'mori bo'lgan. Temuriylar davrida bizga ma'lumki Sohibqiron Amir Temur istilo qilgan o'lkalardagi olim va madaniyat arboblarni o'z yurtiga olib ketgan. Ehtimol, Qavomiddin Sheroziyni ham yurti bosib olingach, Movarounnahrga olib kelingandir. U Shohrux saroyida bosh me'mor vazifasini bajargan. An'anaviy me'morchilikda shaklu-shamoyillarni mahorat bilan tatbiq etgan, ravoqlar kesish uslubini rivojlantirgan me'morlardan biri hisoblanadi. Qavomiddin Mashhaddagi Gavharshod begim me'moriy majmuasi (1405-1418-yillar), Hirotdagi Musallo majmuasi (1417-1438-yillar) va Xoja Abdulla Ansoriy maqbarasi (1428-1429-yillar), Hargirdagi madrasa (1440-yil) va boshqa mahobatli binolarning tarixini chizgan va binolar qurilishiga rahbarlik qilgan[2]. Qavomiddin Sheroziy – o'z zamonida yirik me'moriy asarlarni yaratgan buyuk shaxs edi. Uning faoliyati va yutuqlari, shubhasiz, o'sha davr madaniyatining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Sheroziyning ishlari an'anaviy me'morchilik usullarini zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Mashhaddagi Gavharshod begim me'moriy majmuasi va boshqa inshootlar uning me'moriy g'oyalari va ijodiy yondashuvining

yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi. U, shuningdek, Amir Temur tomonidan olib kelingan madaniyat arboblardan biri sifatida, o'zining ishlariga yurtining boy tarixiy merosini singdirgan. Qavomiddin Sheroziy asarlari nafaqat me'moriy yodgorliklar sifatida, balki tarixiy va madaniy ahamiyatga ega. U o'ziga xos uslub va shakllarni yaratgan holda, kelajak avlodlarga me'morlik san'atining qanchalik muhimligini namoyish etgan. Uning merosi, bugungi kunda ham, me'morlik va madaniyat sohasida o'rganilmoqda va qadrlanmoqda. Sheroziyning ishlari, nafaqat o'z davrida, balki keyingi avlodlar uchun ham ilhom manbai bo'lib qolmoqda.

Temur davridagi ko'zga ko'ringan me'morlardan yana biri Samarqandlik binokor usta Badriddin hisoblanib, u me'morlar Shamsuddin hamda Zayniddin bilan hamkorlikda Shohizinda ansambli (Samarqand)dagi Shodi Mulk og'o maqbarasini qurilish ishlarida ishtirok etgan (1373). Bu haqida maqbara peshtoqining sharafasi, ya'ni binolardagi devor bilan shift oralig'idagi muqarnas asosida qurilgan bezak turi[3] va ustun orasiga yozib qoldirilgan. Badriddin va uning hamkorlari binoning umumiy ko'rinishini nafis va jozibali qilib ishlash, bezak uslubini takomillashtirish, naqshlarini murakkablashtirish yo'li bilan markaziy me'morchilikda, bir xonali maqbaralar me'morlichiligida burilish yasagan. Badriddinning me'moriy faoliyati va uning ijodiy yondashuvi o'z davrida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Uning Shodi Mulk og'o maqbarasini qurishi, nafaqat o'sha davr me'morchiligida, balki keyingi avlodlar uchun ham ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan. Badriddin va uning hamkorlarining naqshlarni murakkablashtirish va bezak uslubini takomillashtirishga bo'lgan intilishi, me'morchilik san'atining rivojlanishida yangi bir yo'nalish ochdi. Bu yondashuv, maqbaraning tashqi ko'rinishini yanada jozibador qilib, zamonaviy me'morchilikda ham o'z aksini topdi. Badriddin va uning jamoasining ishlari, nafaqat ularning mahoratini, balki o'sha davr madaniyatining boyligini ham namoyish etgan. Ularning me'moriy asarlari, bugungi kunda ham tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lib, me'morchilik san'atining yuksak mahoratini belgilaydi. Badriddinning merosi, kelajak avlodlarga me'moriy ijodiyotda qanday yangilanishlar kiritish mumkinligini ko'rsatib, o'zining ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Temuriylar davridagi noyob yodgorliklardan biri bo'lgan Oqsaroyini - usta Muhammad Yusuf Tabriziy boshchiligida bunyod etilgan. Bu haqida obidada qurilgan sanasi 1395-1396-yillar deb ko'rsatilgan va Muhammad Yusuf Tabriziyning nomi naqshlar orasida qayd etilgan[4]. Bundan tashqari Mirak Muhammad ibn Mahmud – Temuriylar davrining mashhur me'mor va muhandislaridan biri bo'lib, u Amir Temur va Ulug'bekning yirik me'moriy loyihalarida ishtirok etgan. Oqsaroyning muhandislik tizimlarini, ayniqsa, baland darvozalar va ulkan devorlarning mustahkamligi bo'yicha ishlagan. Bibixonim masjidida Mirak Muhammad ibn Mahmud bu yirik masjid qurilishida qatnashgan va uning ulkan gumbazlari muhandislik jihatidan mustahkam bo'lishiga mas'ul bo'lgan. U Ulug'bek madrasalari - Samarqand, Buxoro, G'ijduvonda ilmiy va diniy maskanlarning qurilishida ishtirok etgan me'morlardan biri hisoblanadi. Mirak Muhammad ibn Mahmud haqidagi aniq tarixiy manbalar cheklangan bo'lsa-da, u Temuriylar davrining eng muhim inshootlarida ishlagan tajribali me'mor va muhandis sifatida e'tirof etiladi.

Qo'li gul usta me'morlardan yana biri Ali ibn Mahmud Xorazmiydir. U haqida aniq tarixiy manbalar juda kam, lekin uning Amir Temur davridagi yirik me'moriy loyihalarda ishtirok etgan muhandislardan biri bo'lgani taxmin qilinadi. U ham Oqsaroyda bunyod etishda qatnashgan, saroyning suv ta'minoti va drenaj tizimini loyihalashtirishda ishtirok etgan, Bibixonim masjidining muhandislik yechimlari, ayniqsa, mustahkamlik hisob-kitoblari va material tanlash ishlariga jalb qilingan. Xorazmiy unvonidan kelib chiqib, u Xorazm hududidan chiqqan me'mor yoki muhandis bo'lishi mumkin. Xorazm davlati Temuriylar davrida ilg'or muhandislik va arxitektura maktablari bilan mashhur bo'lgan. Shu sababli, Ali ibn Mahmud Xorazmiy Oqsaroy va boshqa yirik inshootlarning barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynagan bo'lishi ehtimol.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Amir Temur va temuriylar davri O'rta Osiyo madaniyati tarixida alohida o'rin tutadi. Bu davrdagi madaniy yutuqlar umumbashariy sivilizatsiyasi darajasida bo'lgan. Madaniyat tarixidagi ushbu mumtoz davrda o'zbek madaniyatining shakllanishi bu davrdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'liqdir.

Xususan, me'morchilik, ilm-fan, adabiyot, san'at, hunarmandchilik ravnaq topdi. Mamlakat, shuningdek yirik shaharlar Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Termiz, Toshkent va Hirotning obodonchiligi, madaniy ravnaqi yo'lida Movarounnahr va O'rta Sharq mamlakatlaridan, Hindistondan ko'plab fan va san'at ahllari, hunarmandlar, me'mor va musavvirlar jam bo'lgan. Ularning sa'y-harakati bilan Shohizindadagi bir guruh me'moriy yodgorliklar, Bibixonim masjidi, Dor us -siyodat (Kesh), Turkistondagi Ahmad Yassaviy maqbarasi kabilar barpo etildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Amir Temur va temuriylardan Shohruh, Ulug'bek, Boysung'ur Mirzo, Abu Said Mirzo va boshqalar madaniyat, adabiyot, naqqoshlik, me'morlik rivojiga katta e'tibor berdilar va ularga homiylik qildilar. Sohibqiron davrida saltanatda juda katta obodonchilik ishlari olib borilgan. Bunga Samarqand, Shahrisabz va boshqa joylarda qurilgan me'moriy majmualar, Samarqand atrofidagi dunyoning yirik shaharlari nomi bilan atalgan Damashq, Misr, Bag'dod, Sultoniya, Forish, Sheroz kabi qishloqlarni ko'rsatib o'tish joizdir[5].

Ta'kidlash joizki obidalarni qurishda me'morchilik sohasida ustoz-shogird an'analari ham muhim rol o'ynagan. Ushbu an'analari orqali me'morlarning bilim va tajribalarini o'tkazish jarayoni amalga oshirilgan. Ustozlar me'morchilik san'atining murakkab usullari va nazariyalarini o'rgatgan. Ular o'z shogirdlariga qurilish muhandisligi, bezaklar, naqshlar va materiallar bilan ishlashni o'rgatishgan. Shogirdlar esa ustozlaridan o'rganish jarayonida amaliy tajriba to'plaganlar. Ular ustozlarining ko'rsatmalari asosida loyihalar yaratgan va qurilish ishlarida ishtirok etganlar. Bu davrda madrasalarda va ustaxonalarida me'morchilikka oid ko'rsatmalar ishlab chiqilgan. Bu joylarda ustoz-shogird munosabatlarida o'zaro bilim va tajriba almashish uchun qulay muhit yaratilgan. Temuriylar davrida qurilgan ko'plab obidalar - masjidlar, madrasalar, maqbaralar - ustoz-shogird an'analarning natijasi sifatida paydo bo'lgan. Bu obidalar o'zining murakkab bezaklari va me'moriy yechimlari bilan ajralib turadi. Umuman olganda, ustoz-shogird an'analari Temuriylar davrida me'morchilik san'atining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan va bu jarayon davomida ko'plab me'moriy durdonalar vujudga kelgan.

Amir Temur davri madaniyati haqida soʻz yuritar ekanmiz, shubhasiz, buyuk davlat arbobi, sarkarda va madaniyat homiysi Amir Temurning bu sohasidagi roʻlini alohida qayd etishimiz zarur. U buyuk imoratlar barpo etdi va ularni ulkan bogʻurogʻlar bilan burkadi, shahar va qishloqlarni tikladi va buzilganlarini qayta obod qildi. Amir Temurning ijodkorlik faoliyati kishini hayratda qoldiradi. Musulmon meʼmorchiligidagi eng yaxshi davr Amir Temur va uning avlodlari bilan bogʻliq. Amir Temur fan va madaniyatning yuksalishida qadimiy mahalliy anʼanalardan foydalanib olimlarga va hunarmandlarga ijod qilish uchun zarur sharoit yaratib berdi. Boshqa mamlakatlardan olib kelingan ustalar qurilishda ishlaganlar, ammo asosiy ishboshi va bosh meʼmorlar mahalliy xalq orasidan yetishib chiqqan ustalardan boʻlgan. Samarqand, Shahrisabz, Buxoro boshqa shaharlarda qurilgan binolar bu yerda ming yillardan buyon davom etib kelayotgan anʼanalar asosida barpo etilganini koʻrsatadi[6].

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, Temuriylar davrida meʼmorchilik va muhandislik sanʼati yuksak darajada rivojlangan boʻlib, bu davrda Oqsaroy, Bibixonim masjidi, Shohi Zinda majmuasi, Goʻri Amir maqbarasi, Ulugʻbek madrasasi kabi yirik inshootlar qurilgan. Bu obidalar nafaqat oʻzining ulugʻvorligi, balki muhandislik va sanʼat nuqtayi nazaridan ham mukammalligi bilan ajralib turadi. Qurilish ishlarida Qavomiddin Sheroziy, Muhammad Yusuf Tabriziy, Mirak Muhammad ibn Mahmud, Sayid Hasan Sheroziy kabi yetuk meʼmor va muhandislar ishtirok etgan. Ularning saʼy-harakatlari natijasida Markaziy Osiyoning meʼmoriy qiyofasi shakllangan va keyingi avlod meʼmorlariga katta taʼsir koʻrsatgan. Umuman olganda, Temuriylar meʼmorchiligi nafaqat Oʻrta Osiyo, balki butun islom olamining eng ulugʻ yodgorliklari qatoridan joy olgan va hanuzgacha oʻrganilib kelayotgan muhim tarixiy-madaniy meros hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYHATI:

1. Ahmedov B. Sohibqiron Temur. –Toshkent, "Abdulla Qodiriy" nashriyoti, 1996. -136 b.
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Qavomuddin_Sheroziy
3. Zohidov P.Sh. Meʼmor olami. –Toshkent, "Qomuslar" Bosh tahririyati, 1996. -239 b.
4. https://sanat.orexca.com/2002-rus/2002-1-2/history_art3-4/

5. <https://www.savol-javob.com/>
6. <https://ilmiybaza.uz/document/amir-temur-va-temuriylar-davri-madaniyati/>